

## “BAHOR QAYTMAYDI” NEGA “BAHOR QAYTMAYDI”?

*Urganch davlat universiteti talabasi*

*Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasining qisqacha tahlili orqali asarning nega bunday nomlanganligi, qissa mazmuni va sarlavhasining aloqadorligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** asar sarlavhasi, bosh obraz, umrning bahori.

**Annotation:** In this article, through a brief analysis of O'tkir Hashimov's short story "Spring does not return", it is explained why the work is called this way, the content of the story and the relationship of the title.

**Key words:** the introduction of the work, the main character, the spring of life.

**Аннотация:** В данной статье посредством краткого анализа рассказа Откира Гашимова «Весна не возвращается» поясняется, почему произведение названо именно так, содержание рассказа и связь названия.

**Ключевые слова:** вступление произведения, главный герой, источник жизни.

Har bir asarning o'ziga xos, uning mazmuniga yoxud anglatadigan ma'nosiga mos holda tanlangan sarlavhasi mavjud bo'ladi. Sarlavha asar uchun muhim qism hisoblanadi. Chunki shunday asarlar borki, uning sarlavhasini o'qishi bilan kitobxon qalbida o'sha asarga bo'lgan qiziqish uyg'onadi, uning nega bunday nomlanganini, kitob voqealari qanday kechganligini, nima haqida ekanligini bilgisi keladi, uni o'qishga intiladi. Shuningdek, ayrim asarlarning sarlavhasi va mazmuni mos kelmaydi, ya'ni bir-biriga yaqin bo'lmaydi, sarlavhani o'qiganimizda mutlaqo boshqacha tasavvur uyg'onasa, asarning mutolaasidan so'ng boshqa mazmuni ilg'ab olamiz. Jumladan, Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush" komediyasining sarlavhasini eshitganda kitobxon qandaydir o'zgacha ruhdagi asarni tasavvur qiladi, ammo asar yumorga asoslangan bo'lib, sarlavhasidan anglashiladigan ilk fikrga zid mavzuda yozilgan. Shunday bo'lsa-da, har qanday badiiy adabiyot namunasiga qo'yilgan nom uning ichki mazmuniga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'ladi, ya'ni asarning qayeridadir sarlavhasiga ishora qilinadi, faqat uning nomidan mazmuni bilinib turishi yoki ko'chma ma'nolarda bo'lib, asar o'qilgandan so'nggina nega unday nomlanganligi, sarlavha va mavzu orasidagi hamohanglik ma'lum bo'lishi mumkin.

Asar sarlavhasi. Aniqlik va qisqalik nasrning birinchi ustunligidir. U fikrni talab etadi, busiz go'zal ifoda hech narsaga xizmat qilmaydi" ekan, asar sarlavhasi bir yoki bir necha so'zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan mazmuni o'zida aniq jamg'arishi, nomlanishidanoq o'quvchini o'ziga jalb qilishi lozim. (<https://azkurs.org/toshkent-davlat-sharqshunoslik-universiteti.html?page=4>).

Ayrim asarlarning sarlavhasi unlardagi bosh qahramonlar nomi bo'lan atalishi ham mumkin. Adabiyotimizda bunday asarlar ko'plab uchraydi. Fikrimizga da'dil sifatida "Navoiy" (Oybek), Zaynab va Omon" ( H. Olimjon), "Mirzo Ulug'bek" (M. Shayxzoda), "Shiroq" (Mirkarim Osim) kabi asarlarni keltirish mumkin.

O'tkir Hoshimovning " Bahor qaytmaydi" qissasi sarlavhasi xususida fikr yuritadigan bo'lsak, "Bahor qaytmaydi" birikmasi ve asosida qo'yilgan. Ma'lumki, "bahor" beg'uborlik, go'zallik dunyoni to'ldirib turadigan fasl hisoblanadi. Asarda inson umrining ham go'zal, mazmunli, quvonchli, haqiqiy baxtga burkangan davri bahorga qiyoslanmoqda. "Qaytmaydi" so'zida esa ana shu go'zal davr boshqa qaytmasligiga urg'u beriladi. Bundan ko'rinadiki, sarlavhaning o'zida har bir narsani o'z vaqtida qadrlash lozimligini uqtirish maqsadi bor.

"Bahor qaytmaydi" qissasi sarlavhasi uning bosh qahramonlari va asar sujeti bilan bevosita aloqador. Qissaning bosh qahramoni hisoblangan Alimardonning xarakteri va qilgan xatolarida asar nomi esimizga tushadi. U o'z oilasining, unga umrini bag'ishlashga tayyor bo'lgan umr yo'ldoshi Muqaddamning qadriga yetmaydi, o'z bahorini qadrlamaydi, hatto jajji o'g'ilchasi ham ko'zlariga ko'rinmay, uni ham o'ylamasdan, o'tkinchi hoy-u havaslarga uchib ulkan xatolarga yo'l qo'yadi. Ammo bilmaydiki, oila - muqaddas, nima qilmasin, buzilgan oilani qayta o'z holiga qaytarish mushkul ish, lekin Alimardon buni jiddiy o'ylab ham ko'rmaydi, buning o'rniga ko'ngilxushlik bilan o'zini avrab yashashda davom etadi, Muqaddam kabi unga mehribon, sodiq insonni boshqa uchrata olmasligini anglamaydi va asar oxirida o'zining xatolarini anglab yetadi, ich-ichidan o'ziga nisbatan nafratni, farzandining, qolaversa, ayolining boshqa bir insonning baxtli oilasiga aylanganligi alamini his qiladi. Afsuski, kech bo'lgandi, endi bahor qaytib kelmasdi.

Oson erishilgan baxtning qadri bo'lmaydi deganlari shudir, ehtimol. Alimardon Muqaddamni hayotiga juda oson olib kirdi, doimo yengil o'ylab o'z hayotini qo'llari bilan barbod qildi.

Alimardonning hayotida oilasidan vos kechganidan so'ng atigi uch oygina o'tib ularni uchratishi va qattiq afsus-nafomatda qolishi asarda quyidagicha tasvirlanadi.

*Alimardon qotib qoldi. Ostonada odmi ko‘ylak kiyib olgan, bosh yalang Muqaddam turardi. Uning ko‘zlari katta-katta ochilib, rangi devor bo‘lib ketgan edi. Ha, bu Muqaddam edi. Bir vaqtlar uning o‘ziniki bo‘lgan, hozir esa bir olam nariga ketib qolgan begona Muqaddam edi. Alimardon boshi aylanib ketayotganini, ko‘z o‘ngida xira halqachalar pirpirayotganini sezib turar, hozir bir ofat bo‘lishini, allaqanday dahshat ro‘y berishini bilar, ammo tili kalimaga kelmas edi<sup>1</sup>.*

Alimardonning xatosi uchun, oilasini qadrlamaganligi uchun hayotning o‘zi unga jazo beradi, Muqaddam qachonlardir his qilgan tuyg‘uni unga ham tushuntirib qo‘yadi, eng og‘iri esa uning farzandi bo‘lgan bolakay undan o‘zini olib, unga aytishi kerak bo‘lgan so‘zlarni ko‘z oldida boshqa bir begona kishiga aytadi. Qissa qahramonining so‘nggi pushaymoni o‘ziga dushman bo‘ladi. Alimardon qiziqqon tabiati tufayli bu alamga chiday olmaydi. Uning bu xarakteri esa uni olimga olib boradi. Alimardon o‘sha kuni mashinasini jahl bilan katta tezlikda haydab borarkan, jarga qulab vafot etadi. Asarda Alimardonning o‘zigina emas, balki hayoti, ichki olami, shu bilan birga umrining bahori ham jarga qulab bo‘lgandi.

Asar yakunida shunday jumlar keltiriladi:

*Ertasiga kechqurun Qonqus yoqasida- Alimardonning eng baxtiyor, eng pokiza damlari – bolalik yillari kechgan o‘sha anhor yoqasida jimgina mudrab yotgan, go‘ristonda yana bir qabr mungli do‘ppaydi. Hassakashlar go‘ristondan chiqib ketayotganida yangi mozorning yomg‘irdan ivigan mayin tuprog‘i ularning ortidan unsizgina javdirab qoldi. ...Yana bir necha kundan keyin yayrab-yashnab bahor keldi. Go‘riston yonidan keskin burilib oqayotgan Qonqus toshqin suvlarini bag‘riga sig‘dirolmay shuvullay boshladi<sup>2</sup>.*

Asarning so‘ngida olamga yana bahor qaytadi, tabiatning qayta jonlanishi tasvirlanadi, ammo muallif asar sarlavhasida shuni aytmoqchiki, inson umridagi bahorlar hech qachon qaytib kelmaydi, faqat tabiatgagina bahorlar qaytishi mumkin. Shunday ekan, qissaning sarlavhasining nomlanishi zamirida har bir narsani o‘z vaqtida qadriga yetish lozim degan hikmat mujassamlashgan. Demak, shunday xulosa qila olamizki, O‘tkir Hoshimovning bu qissasi asarning mazmuni va sarlavhasi uygunligiga ko‘ra “Bahor qaytmaydi” deb nomlangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://azkurs.org/toshkent-davlat-sharqshunoslik-universiteti.html?page=4>
2. O‘. Hoshimov. Bahor qaytmaydi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.

<sup>1</sup> O‘. Hoshimov. Bahor qaytmaydi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. –B. 174.

<sup>2</sup> O‘. Hoshimov. Bahor qaytmaydi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. –B. 177-178.